
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



## Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 7-8**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY'ATI:**

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

**МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ**
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? ..... 7

**ASHIRBOYEV SAMIXON**
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi ..... 10

**XUDOYBERGANOVA DURDONA**
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida ..... 14

**МАМАТОВ АБДУҒОФУР**
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи ..... 18

**ELTAZAROV JO‘LIBOY**
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine ..... 24

**ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,**
**HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH**
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos ..... 30

**PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,**
**MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH**
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida ..... 34

**TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,**
**JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA**
Baho va darajalanish munosabati ..... 38

**ABDIYEV MURODQOSIM**
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida ..... 44

**МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ**
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари ..... 50

**SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH**
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari ..... 56

**FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA**
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar ..... 59

**DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI**
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida ..... 63

# МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

**OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH**
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili ..... 67

**TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA**
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar ..... 70

**TEMIROVA KAMOLA**
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi ..... 74

**KURBONMURATOV ABROR**
Ekstremistik matnda muallif belgilari ..... 80

**NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH**
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) ..... 83

**CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA**
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari ..... 86

**NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI**
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini ..... 89

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# TAQLID SO‘ZLAR ORQALI IFODALANGAN TOVUSH VA HARAKAT-HOLATNING DAVOMIYLIK SEMASI (TOG‘AY MUROD ASASRLARI MISOLIDA)

**Nuraliyev G‘olibjon Qurbonboyevich,**
*Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

O‘zbek tilida taqlid so‘zlarning asosiy qismi bir yoki ikki yopiq bo‘g‘indan iborat bo‘lib, takrorlanganda asosan shu taqlid so‘z ba’zida o‘zgarmaydi, ba’zan ma’lum fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Shu asosda taqlid so‘zlar juft va takroriy kabi turlarga bo‘linadi. Albatta, bu fonetik o‘zgarishlar taqlid so‘zning ma’nosiga ma’lum ta’sir qilganligi sezilib, taqlid so‘z ma’nosi kengayishi kuzatiladi. Masalan: *Ordennishonlar **jangir-jangir** etdi* [1]. Misolimizda keltirilgan *jangir-jangir* kabi takroriy taqlid so‘zdan navbatdagi misolimizdagi: *Orden nishonlarni **jaraq-juruq**latib qaradi*[2]. *Jaraq-juruq* juft taqlid so‘zi ma’lum ma’no anglatishi, semantik maydoni yuzasidan kengroqligi anglashiladi. *jangir-jangir* bir xil tovushning nomi va u takrorlanib kelmoqda. *jaraq-juruq* ma’lum ma’noviy ottenkada farqlanadigan ikki xil tovushning nomi bo‘lib, juft holda kelgan taqlid so‘zdir.

Sodda holda nutqda qo‘llangan tasviriy so‘z ma’lum hodisaning bir marta bo‘lganligini, bir lahzada sodir bo‘lganlikni anglatadi. Masalan: *Bo‘ri polvon **yalt** etib Sho‘rchiliklar to‘dasiga qaradi* [3]. Keltirilgan misolimizdagi *yalt* taqlid so‘zi nutq vaziatidagi yuz berayotgan harakat-holatning bir hahzada, birdaniga, tezlik bilan va bir marta yuz berganini ifodalaydi.

Taqlid so‘zlar o‘zbek tilshunosligida ilk o‘rganilgan davrlardan boshlab ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular: tovushga taqlid so‘zlar va harakat-holatga taqlid (obrazli) so‘zlardir. Tovushga taqlid so‘zlar taqlid so‘zlarning bir guruhi bo‘lib, kishilar, har xil jonivorlar, narsa va hodisalarning chiqargan tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo‘ladi. Harakat-holatga taqlid so‘zlar ham taqlid so‘zlarning o‘ziga xos qismi bo‘lib, ular grammatik, stilistik, shakl kabi tomonlardan tovushlarga taqlid so‘zlarga yaqin tomonlari mavjud bo‘lsa-da tovushlarga taqlid so‘zlar eshitish bilan bog‘liq hodisalarni ifodalasa, obrazli so‘zlar ko‘proq ko‘rish bilan bog‘liq hodisalarni ifodalaydi. Bunday so‘zlar predmetlarning harakat-holati, tashqi ko‘rinishining obrazli ifodasi sifatida vujudga kelib, asosan, stilistik maqsadlar uchun qo‘llanuvchi so‘zlardir. Obrazli so‘zlar kishi, narsa va hodisalarning harakat, holat obrazini bizning ko‘z o‘ngimizda to‘laroq, haqqoniylikka yaqinroq aks ettiradi. Kundalik hayotda harakat va holat formalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, til ularni ifodalovchi so‘zlarga ham shuncha boy bo‘ladi. Yuqorida ko‘rib chiqqan misolimizning birida keltirilgan taqlid so‘zning ikkinchi qismida (*jaraq-juruqlatib*) taqlid so‘zdan affiksatsiya usuli bilan fe’l yasalgan bo‘lib, *-illa, -la* va *-ra* affikslari bu jarayonda sermahsul affiks hisoblanadi. Fe’l so‘z turkumiga affikatsiya usuli bilan tasviriy so‘zlardan yasalgan fe’llar juda ko‘plab uchraydi. Bu haqda o‘z davridayoq N.A.Baskakov turkiy tillardagi tasviriy so‘zlarning ot va fe’l yasalishida katta rol o‘ynashini (yasalishiga asos bo‘lishini) ta’kidlagan holda, agar ananaviy so‘z turkumlari tasnifi sxemalaridan chekingan holda muammoga yondashilsa, turkiy tillarda hatto ism turkumida tasviriy ot va fe’l urkumi ichida tasviriy fe’llar kabi ko‘plab mavjud deb hisoblash mumkin ekanligi haqida yozganligini aytish mumkin[4].

Shu o‘rinda aytish lozimki, ko‘p hollarda ma’lum gap tarkibida kelgan taqlid so‘zni gap tarkibidan olib tashlansa ham gap ma’zmunida deyarli o‘zgarish bo‘lmaydi. Faqatgina gapdagi tasviriylik yo‘qoladi. Masalan: *Zardolilar ostiga **tap-tap** tushdi*[5]. Mazkur gap tarkibidan taqlid so‘zni olib ifodalanganda ham gap mazmunida o‘zgarish sezilmaydi: *Zardolilar ostiga tushdi*. Gap mazmuni hamon zardolilarning tushganligi haqida darak gap shakliga ega, ammo uning qay tarzda tushganligi haqidagi tasvir va tinglovchida hosil bo‘ladigan tasavvur gap tarkibidan chetlashganligini ko‘ramiz. Nega gap tarkibidagi taqlid emas, tasviriylik dedik? E’tibor berilsa, bun-

[1] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 277.
[2] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 276.
[3] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 45.
[4] Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 57.
[5] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 23.



day so‘zlardan faqatgina shunchaki taqlid qilish uchun emas, tasvirlash ehtiyoji yuzasidan foydalanilishi oydinlashadi. Inson o‘zi eshitgan tovushlarni yoki ko‘rgan harakat-holatini imkon qadar asliga yaqinroq ifodalash, tinglovchiga tushinarliroq yetkazish ehtiyojidan aniqroq tasvirlashga harakat qiladi. Albatta, taqlid so‘zlarda eshitilgan tovushning balad-pasligi, davomiyligi yoki guvohi bo‘lingan harakat-holatning davomiylik semasi o‘z aksini topadi. Bunday mulohazalar tasviriy so‘zlarni stilistik hodisa ekanligini izohlaydi.

O‘zbek tilida taqlidiy so‘zlar asosan bir bo‘g‘indan tashkil topgan bo‘ladi. Ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lgan tasviriy so‘zlar ham kam sonli bo‘lsa-da, tilimizda mavjud. Ammo uch va undan ko‘p bo‘g‘indan iborat bo‘lgan tasviriy so‘zlar tilimizda yo‘q hisob. Shu o‘rinda tasviriy so‘zlarning asosan undosh tovushlardan boshlanishi va ko‘pincha undosh-unli-undosh, undosh-unli-undosh-undosh qolipida bo‘lishini aytib o‘tishimiz kerak.

Tasviriy so‘zlardan og‘izaki va yozma nutqda asosan tovush hamda harakat-holatni haqqoniylikka imkon darajasida yaqin va obrazli ifodalash maqsadida foydalaniladi. Albatta, tabiyatdagi turli-tuman tovushlarni cheklangan nutq tovushlari tizmi orqali aynan takrorlash qiyin bo‘lib, bunday tovushlarning taqlidi imkon qadar asliga yaqin tasvirlash bilan cheklaniladi. Shu bilan bir qatorda tovush hamda harakat-holatni davomiylik darajasini ham ifodalanishi kuzatiladi. Tovush hamda harakat-holatni davomiylik darajasini ifodalanishining bir necha ko‘rinishlarini sanab o‘tamiz:

– Tovush hamda harakat-holatni bir lahzada, bir zumda yoki tezda yuz berganini ifodalash uchun ko‘pincha taqlid so‘zlar sodda shaklda keltiriladi: *Ziyod keti bilan* ***gup*** *etib tushdi*[1]. *Tishlari orasidan* ***chirt*** *etib tupurdi* [2]. Yoki *Daho joyidan* ***lik*** *etib turdi*[3] kabi. Keltirilgan misollardan anglashiladiki, atoqli adib Tog‘ay Murod asarlarida keltirilgan mazkur holatlarda asar qahramonlari harakatlari tezlik bilan amalga oshirilganligi semasini ifodalash uchun ushbu taqlid so‘zlar qo‘llanilgan.

– Tovush hamda harakat-holatni davomiylik darajasini oddiy yani o‘z holicha ifodalash uchun taqlid so‘zlar takror yoki juft holatlarda qo‘llaniladi: *Boltalar* ***tars-tars*** *yordi. Shoxlar* ***qars-qars*** *sindi*[4]. *Etlari* ***dir-dir*** *uchdi. Qo‘llari* ***qalt-qalt*** *etdi. Tishlari* ***tik-tik*** *etdi*[5]. Tasviriy so‘zlar jonli va jonsiz tabiyatdagi barcha predmetlarning tovushi, harakati va holatini lisoniy ifodasidir. Bunda so‘zlavchinig tinglovchiga, yozuvchining o‘quvchiga o‘z fikrini jonli, haqqoniy yetkazish maqsadida foydalanishi kuzatiladi. Ko‘pincha ma’lum gap tarkibidagi tasviriy so‘z olib qo‘yilsa ham gap mazmuniga sezilarli ta’sir etmasligi, faqat tasviriylik yo‘qolishi tasviriy so‘zlarning stilistik hadisa ekanligini izohlaydi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, tasviriy so‘zlar leksik ma’no anglatmaydi, faqat tovush va harakat-holatning nomi bo‘lish vazifasini bajaradi. Shu jihati bilan leksemalardan farqlanilishi kuzatiladi.

– Tovush hamda harakat-holatni davomiylik darajasini oddiyga nisbatan uzoqroq vaqt davom etganlik semasini ifodalash uchun ko‘p hollarda taqlid so‘zlarning so‘ngi undosh tovushi takror holatda ishlatilishi kuzatiladi. *Arralar* ***qirr-qirr*** *borib keldi*[6]. *Samaliyot boshim uzra* ***tizz-tizz*** *dori sepib o‘tadi*[7]. Bunday taqlid so‘zlarga sodda holda qo‘llangan bo‘lib, oxirgi undosh tovushi takrorlangan taqlid so‘zlarni ham kiritish mumkin: *Yomg‘ir maydalab-maydalab yog‘di* ***shuvvv****… shox-shabbasi qirs-qirs sinib tushdi*[8]. *Mashina* ***shig‘g‘*** *etib toyib kelib to‘xtadi*[9]. Misolimizda keltirilgan ***shig‘g‘*** taqlid so‘zini mavhum tushuncha ifodalab kelish o‘rni ham tilimizda mavjud: *Ko‘nglim* ***shig‘g‘*** *etdi* [10]. Insonning ichki kechinmalari, sezgilari tasvirini ifodalagan tasviriy so‘zlar asosan mavhum tushunchalarni ifodalab keladi. Adabiyotlarda bunday tasviriy so‘zlar metaforik xususiyatga egaligi ta’kidlanadi[11]. Metaforik so‘zlar tovushga taqlid so‘zlar kabi eshitilgan tovushlar tasviri sifatida ham, harakat-holat tasvirini ifodalagan so‘zlar kabi ko‘rish ham mumkin emas bo‘lsa-da, kishida ma’lum ta’surot uyg‘otadi. Insonlarning har xil ruhiy holatlari va ichki kechinmalari tasviri sifatida tilda lingvistik ahamiyatga ega bo‘lgan tasviriy so‘zlar vujudga keladi.

– Tovush hamda harakat-holatni davomiylik darajasini doimiy yoki uzoq vaqt davom etganlik darajasini ifodalash uchun esa takririy taqlid so‘zlarning ikki martadan ko‘proq takrorlanish holatlari kuzatiladi: *Qoqoqladi-qoqoqladi, shahd bilan tomlab uchdi.*

[1] Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 99.

[2] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 30.

[3] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 232.

[4] Мурод, Тоғай. Танланган асарлар / II жилд. Отамдан қолган далалар. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Романлар. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 529.

[5] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 231.

[6] Мурод, Тоғай. Танланган асарлар / II жилд. Отамдан қолган далалар. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Романлар. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 529.

[7] Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 95.

[8] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 86.

[9] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 227.

[10] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 243.

[11] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. – Самарқанд, 1980. – Б. 39.

***Chiy-chiy-chiy*** *etmish jo‘jasiga talpindi*[1]. *Davrada chanqovuz bo‘zladi:* ***-biyov-biyov-biyov!***[2]. Ushbu turkumga takroriy taqlid so‘zlarning oxirgi undosh tovushining takrorlanib kelish holatlarini ham kiritish mumkin: *Kelin yig‘i boshlandi:* ***-Uvv-uvvv-uvvv…***[3]. *Kadiga tizillab tushmish oppoq-oppoq sut sado berdi:* ***povv-povv-povv!***[4] Taqlidiy so‘zlar rang-barang bo‘lib, bir holatni bir necha birliklar bilan ifodalanishini ko‘rish mukin. Bu taqlidiy so‘zlar o‘rtasida sinonimik birliklardir. Birgina *yig‘lamoq*ni tasvirilashda tilimizda ko‘plab holat bilan bog‘liq obrazli so‘zlar mavjud: *Bolalar* ***ho‘ng-ho‘ng*** *yig‘ladi. Ziyodni onasi* ***iz-z-iz-z*** *yig‘ladi. Ziyadni onasi* ***yum-m-yum-m*** *yig‘ladi*[5]. Tilimiz boyligi va imkoniyatlaridan samarali foydalanaolgan adib bu o‘rinda bir xillikdan qochish, kitobxonni zeriktirmaslik, shu bilan bir qatorda asarda keltirilgan onaxonning qanday yig‘lagani, qay tarzda yig‘lagani va chorasiz, imkonsiz hamda umdsiz yig‘laganini o‘quvchiga obrazli tarzda yetkazib berishda taqlid so‘zlardan unimli fodalangan deyish mumkin.

Keltirilgan misollar tarkibidagi obrazli so‘zlarning ba’zilari tovushga taqlid so‘zlar bilan bir xildek ko‘rinadi. Bunday holatlar haqida tilshunos olim R.Qo‘ng‘rov shunday yozadi: «Tasviriy so‘zlarning semantikasini aniqlashda ko‘p o‘rinlarda kontekst hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bir tovush kompleksining o‘zi turli o‘rinda turli ma’no anglatishi mumkin. Ya’ni bir tasviriy so‘z ma’lum o‘rinda tovushga taqlid bildirsa, boshqa o‘rinda narsa va hodisalarning harakat, holat obrazini ifodalaydi. Bu ma’no esa kontekstda oydinlashadi»- deya ta’kidlaydi[6]. Ushbu fikrlarni inobatga olib, maqolamizda keltirilgan misollarni atoqli adib Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan o‘rinlardan olishga harakat qildik, zero taqlid so‘zlarning asosiy vazifalaridan biri – taqlid so‘zlarni asarlarda qo‘llanilishi kitobxonga voqiylikni jonli, yorqin anglashiga va ko‘z oldiga keltirishiga yordam berish va obrazlilikni oshirishdir. Ko‘rib chiqqan misollarimizdan ham anglashiladiki taqlid so‘zlarning semasi o‘ziga juda yaqin bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadi deyish mumkin. Taqlid so‘zlar eshitilgan tovushning yoki guvohi bo‘lingan harakat-holatning lisoniy ifodasidir. Ma’lum tovush yoki harakat-holat tilda o‘z aksini topib, so‘z degan maqomga ega bo‘ldimi u tilshunoslikni obyekti sanaladi va har tomonlama tilshunoslar tomonidan tadqiq etiladi. Mazkur maqolada ma’lum tovush yoki harakat-holatning tilda o‘z aksini topib, taqlid so‘zlar turkumidan o‘rin olgan so‘zlarning davomiylik semasini ko‘rib chiqishga harakat qildik.

**Rezyume.** Tilimizdagi taqlid so‘zlar juft, takroriy va sodda kabi shakllarda qo‘llaniladi. Taqlid so‘zlarning bunday qo‘llanilishi ma’lum tovush yoki harakat holatning davomiylik semasini belgilab beradi. Mazkur maqolada taqlid so‘zlarning nutq vaziatidagi o‘rni va davomiylik semasini atoqli adib Tog‘ay Murod asarlari misolida tahlil etilgan.

**Resume**. Imitative words in our language are used in double, repeated and simple forms. Such use of imitative words determines the continuity scheme of a certain sound or action. In this article, the place of imitation words in the speech situation and the continuity scheme are analyzed on the example of the works of the famous writer Togay Murad.

**Резюме.** Подражательные слова в нашем языке употребляются в двойных, повторяющихся и простых формах. Такое использование подражательных слов определяет схему непрерывности определенного звука или действия. В данной статье на примере произведений известного писателя Тогая Мурада анализируется место подражательных слов в речевой ситуации и схема преемственности.

[1] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 36.
[2] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 14.
[3] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar / “Asr oshgan asarlar” turkumi. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 29.
[4] Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi / Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 313.
[5] Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 70-71.
[6] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. – Самарқанд, 1980. – Б. 74.